

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamov Amriddin Xamdam o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikramova Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIVAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA YANGI KONSEPTUAL VA USLUBIY YECHIMLAR: SIRKULYAR IQTISODIYOT TAJRIBASI.....	180
Otajanova Shahnoza Shuhratovna	
BANKLARDA RISKLARNI BOSHQARISH, DAROMAD VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH	185
Jo'rayev Bekzod Bahodir o'g'li	
INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI TA'MINLASHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI MENEJMENTINI HUDUDIY KLASSTERLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH MODEL: TASHKILIY-BOSHQARUV MEKANIZMLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	192
Rajapova Guldona Usman qizi	
FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI	198
Rashidov Baxadir Yusupovich	



FERMER XO'JALIKLARIDA MOLIYAVIY NATIJALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: FOYDA SIFATI VA BARQARORLIGINI BAHOLASH YONDASHUVLARI

Rashidov Baxadir Yusupovich
Nukus davlat texnika universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Email: ibakhadir@gmail.com

Abstract. The article examines the efficiency of financial results management in farms. It argues that, under conditions of seasonal agricultural production, uneven cash flows, climate-related risks, and changing financing costs, a more comprehensive assessment of farm performance can be achieved by complementing the absolute amount of net profit with additional financial indicators. Therefore, an approach based on profit quality and stability is proposed. Using the financial indicators of the "Boysun", "Zamira qazayaqli", and "Qoraqalpoq Azamati" farms operating in the Republic of Karakalpakstan during 2021–2025, the study analyzes revenue, production costs, gross and net profit, and return on sales. The effects of production costs, operating expenses, and financial expenses on changes in net ROS are assessed through factor decomposition. The results show that sustainable increases in net profit and profitability are supported not only by revenue growth but also by effective cost and financial resource management. Practical recommendations are developed to improve financial results management in farms.

Keywords: farm, financial results, net profit, profit quality, profit stability, return on sales, net ROS, production costs, cost intensity, financial expenses.

Annotatsiya. Maqolada fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarni boshqarish samaradorligi o'rganilgan. Mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, pul oqimlarining notekisligi, iqlim bilan bog'liq risklar va moliyalashtirish xarajatlarning o'zgarishi sharoitida fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada kompleks baholash uchun sof foydaning mutlaq miqdorini qo'shimcha moliyaviy ko'rsatkichlar bilan to'ldirish zarurligi asoslangan. Shu munosabat bilan foyda sifati va barqarorligiga asoslangan yondashuv taklif etilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yurituvchi "Boysun", "Zamira qazayaqli" va "Qoraqalpoq Azamati" fermer xo'jaliklarining 2021–2025-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida tushum, ishlab chiqarish xarajatlari, yalpi va sof foyda hamda sotuv rentabelligi tahlil qilingan. Ishlab chiqarish xarajatlari, operatsion xarajatlar va moliyaviy xarajatlarning sof ROS o'zgarishiga ta'siri omilli dekompozitsiya orqali baholangan. Natijalar sof foyda va rentabellikning barqaror o'sishi nafaqat tushumning ko'payishi, balki xarajatlar va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish bilan ham ta'minlanishini ko'rsatadi. Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fermer xo'jaligi, moliyaviy natijalar, sof foyda, foyda sifati, foyda barqarorligi, sotuv rentabelligi, sof ROS, ishlab chiqarish xarajatlari, xarajat sig'imi, moliyaviy xarajatlar.

Аннотация. В статье исследуется эффективность управления финансовыми результатами фермерских хозяйств. Обосновано, что в условиях сезонного сельскохозяйственного производства, неравномерности денежных потоков, климатических рисков и изменения стоимости финансирования более комплексная оценка деятельности фермерских хозяйств может быть обеспечена путем дополнения абсолютной величины чистой прибыли дополнительными финансовыми показателями. В связи с этим предложен подход, основанный на качестве и устойчивости прибыли. На основе финансовых показателей фермерских хозяйств «Boysun», «Zamira qazayaqli» и «Qoraqalpoq Azamati», осуществляющих деятельность в Республике Каракалпакстан в 2021–2025 годах, проанализированы выручка, производственные затраты, валовая и чистая прибыль, а также рентабельность продаж. Влияние производственных, операционных и финансовых расходов на изменение чистой рентабельности продаж (net ROS) оценено с помощью факторной декомпозиции. Результаты показывают, что устойчивый рост чистой прибыли и рентабельности обеспечивается не только увеличением выручки, но и эффективным управлением затратами и финансовыми ресурсами. Разработаны практические рекомендации по совершенствованию управления финансовыми результатами фермерских хозяйств.

Ключевые слова: фермерское хозяйство, финансовые результаты, чистая прибыль, качество прибыли, устойчивость прибыли, рентабельность продаж, чистая ROS, производственные затраты, затратноёмкость, финансовые расходы.



KIRISH

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligi, aholi bandligi va hududlarning iqtisodiy faolligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, agrar ishlab chiqarishning mavsumiyligi, tabiiy-iqlimiy omillarga bog'liqligi hamda pul oqimlarining yil davomida turlicha shakllanishi fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarni boshqarishga kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini baholashda ko'pincha tushum va sof foydaning o'sishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Amalda moliyaviy samaradorlikni yanada to'liq baholash uchun tushumning o'sishi bilan bir qatorda xarajatlar dinamikasini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mahsulot tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy xarajatlarni samarali boshqarish foyda marjasining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli moliyaviy natijani sof foydaning mutlaq summasi bilan bir qatorda uning qanday shakllangani va vaqt davomida qanchalik barqaror saqlanayotgani orqali ham baholash zarur.

Mazkur masala Qoraqalpog'iston Respublikasidagi fermer xo'jaliklari uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Hududda suv resurslaridan samarali foydalanish zarurati, tuproqning meliorativ holati, hosildorlik dinamikasi va ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi xo'jaliklarning yakuniy moliyaviy natijalarini samarali boshqarishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarni boshqarish samaradorligini foyda sifati va barqarorligi nuqtayi nazaridan baholash hamda sof sotuv rentabelligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fermer xo'jaliklarida moliyaviy natijalarni boshqarish masalasi agrar iqtisodiyot va korporativ moliya nazariyalarining o'zaro bog'liq yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy korporativ moliya nazariyasida S.A. Ross, R.W. Westerfield va J. Jaffe korxonaning moliyaviy natijalarini kapital qiymati, pul oqimlari va moliyaviy qarorlar bilan bog'liq holda baholaydi [1]. S.C. Myers va N.S. Majluf esa moliyalashtirish manbalarini tanlashda ichki mablag'lar va tashqi kapital o'rtasidagi nisbatga alohida e'tibor qaratadi [2].

Agrar iqtisodiyot bo'yicha T.W. Schultz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda texnologiyalar va inson kapitalining rolini asoslab bergan [3]. Y. Hayami va V.W. Ruttan esa resurslardan samarali foydalanish hamda institutsional muhitning agrar innovatsiyalar rivojlanishiga ta'sirini yoritgan [4].

O'zbekistonda B.B. Berkinov fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalash, mahsulotlarni qayta ishlash va sotish masalalarini [5], A. To'xtaboyev va M. Pardayev esa qishloq xo'jaligida hisob yuritish hamda biologik aktivlarni aks ettirishning ayrim jihatlarini tadqiq etgan [6].

Mavjud tadqiqotlarda moliyaviy resurslar, likvidlik, rentabellik va xarajatlar ko'pincha alohida ko'rsatkichlar sifatida o'rganiladi. Tushumning o'sishi, tannarx, operatsion va moliyaviy xarajatlarning yakuniy sof foydaga ta'sirini yagona tizim doirasida baholash ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Shu jihatdan moliyaviy natijalarni ularning mutlaq hajmi bilan bir qatorda shakllanish sifati va barqarorligi asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy, dinamik va omilli tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida "Boysun", "Zamira qazayaqli" va "Qoraqalpoq Azamati" fermer xo'jaliklarining 2021–2025-yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlari olindi. Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, matnни tahrirlash va ilmiy bayonni takomillashtirish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

Tahlil jarayonida sotishdan tushum, sotilgan mahsulot tannarxi, yalpi foyda, davr xarajatlari, moliyaviy xarajatlar va sof foyda ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi o'zgarishi baholandi. Moliyaviy natijalar sifatini aniqlashda yalpi ROS, operatsion ROS va sof ROS ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Sof sotuv rentabelligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun xarajatlar sig'imiga asoslangan omilli dekompozitsiya usulidan foydalanildi. Bunda tannarx sig'imi, davr xarajatlari sig'imi va moliyaviy xarajatlar sig'imining sof ROS ko'rsatkichiga ta'siri alohida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fermer xo'jaliklarida tushumning o'sishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi, uning foydaga aylanish darajasi esa moliyaviy boshqaruv samaradorligini yanada aniqroq ifodalaydi. Shu sababli tahlilda tushum dinamikasi sof foyda va sotuv rentabelligi ko'rsatkichlari bilan birgalikda ko'rib chiqildi.



1-jadval. Fermer xo'jaliklari moliyaviy natijalarining 2021–2025-yillardagi o'zgarishi

Fermer xo'jaligi	Tushum o'sishi, %	O'rtacha yillik o'sish, %	Yalpi foyda o'sishi, %	Sof foyda o'sishi, %	Sof ROS 2021, %	Sof ROS 2025, %
Boysun	207,6	32,4	738,0	341,5	7,22	10,36
Zamira qazayaqli	29,8	6,7	-34,3	-70,3	31,60	7,24
Qoraqalpoq Azamati	133,7	23,6	244,6	146,0	11,40	12,00


Manba: fermer xo'jaliklari moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

“Boysun” fermer xo'jaligida 2021–2025-yillarda tushum 207,6 foizga oshgan. Yalpi va sof foydaning o'sish sur'atlari ham yuqori bo'lgan. Yillar kesimida moliyaviy natijalarning turlicha dinamikasi kuzatilgan. Sof ROS 2022-yilda 49,64 foizga yetib, 2025-yilda 10,36 foizni tashkil etgan. Bu holat mazkur xo'jalikda o'sish salohiyati yuqori ekanini hamda foyda barqarorligini yanada mustahkamlash imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

“Zamira qazayaqli” fermer xo'jaligida 2025-yildagi tushum 2021-yilga nisbatan 29,8 foizga ko'paygan. Shu davrda yalpi foyda 34,3 foizga, sof foyda esa 70,3 foizga kamaygan. Sof ROS 31,60 foizdan 7,24 foizgacha pasaygan. Bu holat sotuv hajmining o'sishi bilan bir qatorda xarajatlarni samarali boshqarishga e'tiborni yanada kuchaytirish orqali moliyaviy natijalarni yaxshilash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

“Qoraqalpoq Azamati” fermer xo'jaligida nisbatan muvozanatli natijalar kuzatilgan. Tushum 133,7 foizga, sof foyda 146,0 foizga oshgan. Sof ROS 2021-yildagi 11,40 foizdan 2025-yilda 12,00 foizga yetgan. Shu bilan birga, 2025-yilda moliyaviy xarajatlar dinamikasi sof foyda marjasini yanada oshirishda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish muhimligini ko'rsatgan.

1-grafik. Fermer xo'jaliklarida sof sotuv rentabelligi (ROS) dinamikasi, 2021–2025-yillar



Manba: fermer xo'jaliklari moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Moliyaviy natijalardagi o'zgarishlarning asosiy sabablarini aniqlash maqsadida sof ROS ko'rsatkichi xarajatlar sig'imi bo'yicha omilli dekompozitsiya qilindi.

2-jadval. 2021–2025-yillarda sof ROS o'zgarishining omilli dekompozitsiyasi, foiz punktlarda

Fermer xo'jaligi	Tannarx sig'imi ta'siri	Davr xarajatlari ta'siri	Moliyaviy xarajatlar ta'siri	Boshqa natijalar ta'siri	Sof ROS o'zgarishi
Boysun	+14,56	-1,11	-3,57	-6,73	+3,14
Zamira qazayaqli	-22,43	+4,51	-6,45	0,00	-24,36
Qoraqalpoq Azamati	+7,40	-3,16	-7,51	+3,86	+0,60

Manba: muallif hisob-kitoblari.



“Boysun” fermer xo‘jaligida tannarx sig‘imining kamayishi sof ROSga 14,56 foiz punkt ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Davr xarajatlari, moliyaviy xarajatlar hamda boshqa natijalardagi o‘zgarishlar ta‘sirida yakuniy sof ROS 3,14 foiz punktga oshgan.

“Zamira qazayaqli” fermer xo‘jaligida sof ROS dinamikasiga eng katta ta‘sir tannarx omili hissasiga to‘g‘ri kelgan. Tannarx sig‘imining o‘sishi sof ROSda 22,43 foiz punkt miqdoridagi o‘zgarishni yuzaga keltirgan. Moliyaviy xarajatlar ham sof ROS dinamikasiga 6,45 foiz punkt miqdorida ta‘sir ko‘rsatgan. Natijada sof ROSning umumiy o‘zgarishi 24,36 foiz punktga tashkil etgan. Mazkur natijalar tannarx va moliyaviy xarajatlarni optimallashtirish orqali rentabellikni oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni ko‘rsatadi.

“Qoraqalpoq Azamati” fermer xo‘jaligida tannarx sig‘imining kamayishi sof ROSga 7,40 foiz punkt ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Moliyaviy xarajatlar dinamikasi hisobga olingan holda yakunda sof ROS 0,60 foiz punktga oshgan. Bu natija tannarxni samarali boshqarish bilan bir qatorda moliyaviy xarajatlarni optimallashtirish orqali rentabellikni yanada oshirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Natijalar yuqori moliyaviy samaradorlikka erishishda tushumning o‘shishini xarajatlarni samarali boshqarish bilan uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Bunda tushumning imkon qadar katta qismini sof foyda sifatida shakllantirish asosiy ahamiyat kasb etadi.

MOLIYAVIY NATIJALARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

O‘tkazilgan tahlil asosida fermer xo‘jaliklarida moliyaviy natijalarni boshqarishni “tushum o‘sishi – tannarx nazorati – operatsion xarajatlar – moliyaviy xarajatlar – sof ROS barqarorligi” ketma-ketligida tashkil etish taklif etiladi.

Birinchidan, mahsulot va faoliyat turlari bo‘yicha daromad hamda xarajatlarni alohida hisobga olish zarur. Bu qaysi mahsulot yuqori marja keltirayotgani va qaysi yo‘nalishlarda rentabellikni yanada oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Tannarxni nazorat qilishda yoqilg‘i, o‘g‘it, urug‘lik, suv, mehnat va texnika xarajatlarini bir gektar yoki mahsulot birligiga nisbatan baholash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, foydani rejalashtirishda fermer xo‘jaliklarining mavsumiy xususiyatlarini hisobga olish lozim. Tushum, xarajatlar, pul oqimlari va qarz to‘lovlari bo‘yicha prognozlarni muntazam yangilab borish, bunda bazaviy, optimistik va ehtiyotkor ssenariylardan foydalanish zarur.

Uchinchidan, moliyaviy xarajatlarni samarali boshqarishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Qarz mablag‘larini jalb qilishda ularning foiz stavkasi va muddati bilan bir qatorda xo‘jalikning qarzga xizmat ko‘rsatish imkoniyati ham baholanishi kerak.

Taklif etilayotgan yondashuvda moliyaviy natija sof foydaning muayyan davrdagi mutlaq miqdori bilan bir qatorda uning shakllanish sifati va barqarorligi asosida baholanadi. Sof ROS, tannarx sig‘imi, moliyaviy xarajatlar sig‘imi va rentabellik dinamikasi asosiy nazorat ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari fermer xo‘jaliklarida moliyaviy natijalarni yanada to‘liq baholashda sof foydaning mutlaq miqdori bilan bir qatorda qo‘shimcha moliyaviy ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish muhimligini ko‘rsatdi. Tushumning o‘shishi bilan bir qatorda mahsulot tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy xarajatlarning o‘zgarishi ham yakuniy moliyaviy natijaga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan xo‘jaliklarda o‘ziga xos moliyaviy rivojlanish tendensiyalari kuzatildi. “Boysun” fermer xo‘jaligida yuqori o‘shish sur‘atlari bilan birga rentabellik barqarorligini yanada mustahkamlash imkoniyatlari, “Zamira qazayaqli” fermer xo‘jaligida tushumning tiklanishi bilan bir qatorda foyda marjasini oshirish imkoniyatlari, “Qoraqalpoq Azamati” fermer xo‘jaligida esa nisbatan barqaror natijalar bilan birga moliyaviy xarajatlarni samarali boshqarish orqali rentabellikni yanada yaxshilash imkoniyatlari aniqlandi.

Fermer xo‘jaliklarida mahsulot turlari bo‘yicha daromad va xarajatlarni alohida hisobga olish, tannarx sig‘imini nazorat qilish, foyda va pul oqimlarini mavsumiy prognozlash, qarzga xizmat ko‘rsatish imkoniyatini oldindan baholash hamda yalpi, operatsion va sof ROS ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, fermer xo‘jaliklarida moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifasi tushum hajmini oshirish bilan bir qatorda uning barqaror sof foydaga aylanishini ta‘minlashdan iborat. Bunday yondashuv foydaning miqdori bilan bir qatorda uning sifati va barqarorligini ham oshirish imkonini beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ross S.A., Westerfield R.W., Jaffe J.F., Jordan B.D. *Corporate Finance*. – 12th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 1040 p. – ISBN 978-1-260-09187-8. – URL: WorldCat bibliografik yozuvi
2. Myers S.C., Majluf N.S. Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have // *Journal of Financial Economics*. – 1984. – Vol. 13, No. 2. – P. 187–221. – DOI: 10.1016/0304-405X(84)90023-0. – URL: DOI / ScienceDirect
3. Schultz T.W. *Transforming Traditional Agriculture*. – New Haven: Yale University Press, 1964. – 212 p. – URL: Google Books
4. Hayami Y., Ruttan V.W. *Agricultural Development: An International Perspective*. – 2nd rev. ed. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1985. – 506 p. – ISBN 978-0-8018-2348-0. – URL: Google Books
5. Salimov B.T., Hamdamov Q.S., Berkinov B.B., Hakimov R.X., Xostov M.S., Ortiqov M.A., Urokov N.I. *Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: TDIU, 2004. – 176 b. – URL: Namangan davlat universiteti elektron kutubxonasi
6. Dusmuratov R.D., Menglikulov B.Yu. *Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 392 b. – ISBN 978-9943-4265-3-5. – URL: Elektron bibliografik manba
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Agricultural Finance and Credit Infrastructure in Transition Economies: Proceedings of OECD Expert Meeting, Moscow, February 1999*. – Paris: OECD Publishing, 1999. – 387 p. – DOI: 10.1787/9789264173811-en. – URL: OECD rasmiy manbasi
8. OECD, Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). *OECD-FAO Agricultural Outlook 2025–2034*. – Paris: OECD Publishing; Rome: FAO, 2025. – 166 p. – DOI: 10.1787/601276cd-en. – URL: OECD rasmiy manbasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
